

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 498 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoiraz Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Hakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyoro Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилова Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане	186
Шахзод Сайдуллаев	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish	192
Ahmedov Komron Muhammadaliyevich	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
Quyjanov Xurshid Abdullayevich	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari	200
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati	206
Normurzaev Umid Xolmurzaevich	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства	214
Нурутдинова Зухра Алишеровна	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati	220
Madaminova Sanobar Askarovna	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari	226
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
Uzakova Umida Ruziyevna	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlar.....	241
Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar	247
Boykabilov Bahodir Mustafayevich	



Kichik sanoat zonalari korxona va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv	251
Ozoda Batirovna Sakiyeva	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari	255
N.N.Zikrillayev	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari	263
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth	268
Almosova Shahnoza Sobirovna	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish	273
Israilov Rustam Ibragimovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
D.D. Suvanova	
Оптимизация маркетинговой деятельности вузов узбекистана для привлечения абитуриентов	283
Шамшиева Наргизахон Носирхужа кизи	
Davlat budjetidan aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari	290
Xannarov Komiljon Karimovich	
Tijorat banklarida transformatsiyalashuv jarayonlarining tahlili	296
Yoqubov Murodjon Valibekovich	
Роль инновационных инфраструктур в обеспечении конкурентоспособности промышленных предприятий	302
Каримов Хожакбар Махамаджон угли	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida Osiyocha ishlab chiqarish usuliga asos solinishi	306
Abdulla Abduqodirov	
Kichik biznes korxonalari ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilish yo'llari	312
Nasrullayev Feruz Furqatovich	
Ijtimoiy-iqtisodiy adolat – barqaror rivojlanish kafolati	318
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
“Istiqlol” memhonxonasi reklama faoliyati tahlili	322
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda asosiy belgilovchi omillar	328
Xaydarov Xurshidbek Latipjonovich	
Enhancing Industrial Efficiency through Integrative Sustainability Approaches	334
Kholmukhamedova Feruza	
Современные способы получения нефтяных битумов	338
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
O'zbekistonda agrobiznes orqali hududlarni rivojlantirish masalalari	342
Islomov Jamshed Davronovich	
Зарубежный опыт трансформации железнодорожной транспортной системы	347
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
Sog'liqni saqlash sohasida davlat xususiy sherikligini tashkil etishning mintaqaviy xususiyatlari	351
Qurbanov Jumanazar Omonovich	
Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisob siyosatini shakllantirish	354
Uzakov Utkir Abdusattarovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	357
Gulbayeva Feruza Islamovna	



Ta'lim muassasalarida namunaviy shtat, jadvallarni tuzish tartiblarini takomillashtirish	364
Ortiqov Xamroqul Abdumajidovich, Boliyev Bahromjon Rustam o'g'li	
Mamlakatimizda turizm sohasini istiqbolda rivojlantirishga ta'sir etuvchi ekzogen omillar tahlili	369
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining masofaviy va boshqa xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari.....	378
Ortiqov Oybek Abdullayevich	
Transport infratuzilmasining xususiyatlari.....	390
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Asosiy vositalarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish tartibi	394
Shermamatov Sirojiddin Xaydarovich	
Logistika jarayonlarida raqamli yechimlar.....	399
Yarashova Vasila Kamalovna, Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
To'g'ridan to'g'ri sug'urta qilish operatsiyalari bo'yicha daromadlarning hisobini takomillashtirish.....	403
Abdusaidov S.J.	
Venchur kapitali: kelib chiqish tarixi va ilg'or horijiy tajribalar.....	409
Do'stov Firuz Ilxomovich	
Анализ статистического исследования рынка паломнического туризма в республике узбекистан	414
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	
Структурно-функциональный анализ гастрономического туризма в республике узбекистан	420
Салиева Екатерина Сергеевна	
Вопросы привлечения внешнего финансирования металлургических предприятий в узбекистане.....	427
Татьяна Будей	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning afzalliklari	431
Khusanov Nodirbek Djumanazarovich	
Innovatsion g'oyalar va yangi ilmiy ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar yaratishning boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish yo'llari.....	437
Daliyev Xusan Xojakbarovich	
Macroeconomic factors in the development of the banking performance	442
Mamadiyorova Madina Nuriddin kizi, Dr.Susanti Kurniawati, X.S.Umarov	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	449
Turg'unov Muxridin Mo'ydinjon o'g'li	
Ecological sustainability and trade: economic and environmental implications of uzbekistan's accession to the WTO	453
Mironshokh Sattarov, Denny Andriana, Sirojiddin Yangiboyev	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishni o'ziga xos tendensiyalari.....	458
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy – nazariy asoslari.....	468
Davletov Po'lat Torabayevich	
Ekoshahar tashkil etishda "yashil" belbog' hamda "yashil" makonning o'rni	476
Karimova Muqaddas Zabixullayevna	
Необходимость изучения механизма управления социально-трудовыми отношениями при переходе республики узбекистан на "зеленую" экономику.....	479
Раматов Зафарбек Жуманиязович	



Klasterlarning rivojlanish tarixi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va raqobatbardoshlikdagi o'rni	482
Sherkulov Shohruh Erkin o'g'li	
Soliqlarni raqamlashtirish: QQS ning muammo va istiqbollari	486
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish yo'llari.....	492
Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich	



DEHQON VA TOMORQA XO'JALIKLARIDA SUG'ORILADIGAN YERLARNING UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

UDK: 631/635(575.1)

Xo'jageldiev Chorshanbi Pardayevich

i.f.f.d. (PhD), dots.v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlardan foydalanish holati Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Sherobod va Termiz tumanlaridagi tomorqa yerlaridan foydalanuvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish usuli bilan o'rganildi. Ushbu so'rovnoma natijalariga ko'ra, dehqon va tomorqa xo'jaliklari foydalanadigan yerlarni bonitirovkalash xizmatini tashkil etish taklifi ishlab chiqildi. Fikrimizcha, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'ygan holda yer unumdorligini oshirishni ko'zda tutuvchi meliorativ loyihalarni moliyalashtirish uchun kredit mablag'laridan foydalanishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar: sug'oriladigan yerlar, soliq, yer resurslari, tuproq unumdorligi, yer sifati, bonitet bali, moliyaviy ko'rsatkichlar, soliq tizimi, sug'urta, kreditlash.

Abstract: This article examines the use of irrigated lands in farms and household plots in the regions of Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarkurgan, Shyerobod, and Termiz districts through a survey conducted among household plot users. Based on the results of this survey, a proposal was developed to establish a land grading syervice for farms and household plots. It is suggested that it would be appropriate for farms and household plots to use credit funds to finance reclamation projects aimed at improving soil fyertility by pledging their leasehold rights as collatyeral.

Key words: irrigated lands, tax, land resources, soil fyertility, land quality, bonitet score, financial indicators, tax system, insurance, lending.

Аннотация: В данной статье исследуется использование орошаемых земель в фермерских и приусадебных хозяйствах методом проведения опроса среди пользователей приусадебных участков по области, районах Олтинсой, Шурчи, Кумкурган, Джаркурган, Шерабад и Термез. На основе результатов этого опроса было разработано предложение по организатсии службы бонитировки земель для фермерских и приусадебных хозяйств. Мы считаем, что фермерам и приусадебным хозяйствам целесообразно использовать кредитные средства для финансирования мелиоративных проектов, направленных на повышение плодородия почв, заложив в качестве залога права аренды на земельные участки.

Ключевые слова: орошаемые земли, налогообложение, земельные ресурсы, плодородие почвы, качество земель, балл бонитета, финансовые показатели, налоговая система, страхование, кредитование.

KIRISH

Respublikamizda sug'oriladigan yerlardan foydalanishda, ayniqsa, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari foydalanadigan yer maydonlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston yer fondining 9 % ga yaqinini ekin maydonlari, sug'oriladigan yerlar esa 7,5 % ni tashkil etadi. Bugungi kunda har bir gektar sug'oriladigan yerga o'rtacha 7,1 kishi to'g'ri kelib, ushbu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga nisbatan ancha yuqoridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda faoliyat yurituvchi tomorqa yer egalari soni 5,5 mln kishini tashkil etib, ular 502,3 ming gektardan ziyod yer maydonida mehnat qilmoqda. Lekin yetishtirilayotgan mahsulotlar miqdori yildan yilga o'sib borayotgan aholi ehtiyojlari uchun yetarli emasligini bozorlarimizdagi narxlarning keskin o'sib borishi ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali



foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi ПФ-5199-son¹ Farmoni va 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3680-son² qarori qabul qilinganligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida katta amaliy o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-ilmiy, uslubiy va amaliy muammolari bo'yicha xorij olimlaridan Lin Fey X, Rabinovich B, Kovalenko N.Ya, Popov N, Petraneva G va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.


Mahalliy iqtisodchi olimlar Q. Chariev, A. Altiev, N. Xushmatov, Sh. Xasanov, T. Farmonov, R. Ergashev, Ch. Murodov va boshqalar ushbu yo'nalishlarda o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer unumdorligini oshirishni rag'batlantirish bilan bog'liq masalalar yetarli darajada o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishlar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishda tuproq unumdorligi muhim ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekanligidan kelib chiqib, tuproq unumdorligini oshirishni rag'batlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqolaning nazariy, amaliy va uslubiy asosi sifatida iqtisodiy adabiyotlar va ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning shu sohaga oid fikr-mulohazalarini o'rganish, jarayonlarni kuzatish, hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, baholash, iqtisodiy va qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli xulosa, taklifhamda tavsiyalar berilgan. Tadqiqot jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda statistik ma'lumotlarni jamlash, umumlashtirish, taqqoslash, so'rovnoma o'tkazish usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlarimizda Surxondaryo viloyatida tomorqa yerlaridan foydalanuvchilar ixtiyoridagi sug'oriladigan yerlardan foydalanish holati Oltinsoy, Sho'rchi, Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on, Sherobod va Termiz tumanlarida so'rovnoma o'tkazish usuli bilan o'rganildi. (1-rasm).



1-rasm. So'rovnoma ijobiy natijalari.

1 <https://lex.uz/docs/3371644>

2 <https://lex.uz/docs/3698698>



1. Yer uchastkasi bonitet bali haqida tushunchaga egamisiz?
2. Yerdan unumli foydalanishda tuproq unumdorligi holati(bonitet bali)ni bilish va uni aniqlash muhimmi?
3. Yer bonitet bali (unumdorlik ko'rsatkichi)ni aniqlash bo'yicha bonitirovkalash korxonasi xizmatidan foydalanishni xohlaysizmi?
4. Yer bonitet balini bilish mahsulot ishlab chiqarishda moddiy resurslarni rejalashtirishda zarur deb hisoblaysizmi?
5. Yer uchastkangiz tuproq unumdorligini oshirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash kerak deb hisoblaysizmi? (mas. bank krediti, biror bir jamg'arma hisobidan)

So'rovnoma natijalariga ko'ra, "yer uchastkasi bonitet bali haqida tushunchaga egamisiz", degan savolga respondentlarning 62,9 %i "yo'q" deb javob berishgan. "Yerdan unumli foydalanishda tuproq unumdorligi holati (bonitet bali)ni bilish va uni aniqlash muhimmi", degan savolga 82,9 %i "muhim", "unumdorlik ko'rsatkichi (bonitet bali)ni aniqlash bo'yicha "bonitirovkalash korxonasi xizmatidan foydalanishni xohlaysizmi", degan savolga 84,8 %i "xohlayman", "yer bonitet balini bilish mahsulot ishlab chiqarishda moddiy resurslarni rejalashtirishda zarur deb hisoblaysizmi" degan savolga 87,5 %i "zarur" deb javob berishgan (1-rasm). So'rovnoma natijalaridan ko'rinadiki, Surxondaryo viloyati tumanlarida tomorqa yerlaridan foydalanuvchilar tuproq unumdorligi (bonitet bali) holati haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas, bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda moddiy resurslar xarajatlarini ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bu jarayonni Surxondaryo viloyati Termiz tumani "Amu sohili" mahallasi va Oltinsoy tumani "Bibizaynab" mahallasi tomorqa yerlarida kartoshka yetishtirish misolida ham ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Termiz tumani "Amu sohili" mahallasi tomorqa yerlaridan foydalanuvchilar 0,01 ga yerga o'rtacha 376,7 ming so'm xarajat evaziga o'rtacha 150,7 ming so'm foyda olishgan (1-jadval).

1-jadval. Termiz tumani "Amu sohili" mahallasi tomorqa yerlarida kartoshka yetishtirish iqtisodiy ko'rsatkichlari (2022-yil).

№	Tomorqa egasi	Ekin maydoni, ga	1 birlik ekin maydoniga nisbatan					
			Yer maydoni, ga	Yetishtirilgan mahsulot miqdori, t	Mahsulot yetishtirish xarajatlari, ming so'm	Daromad, ming so'm	Foyda, ming so'm	Rentabellik, %
	1	2	3	4	5	6		7
1	Tilovova N	0,05	0,01	0,2	355,3	508,0	152,7	43,0
2	Allayorov I	0,04	0,01	0,2	383,4	500,0	116,6	30,4
3	Xidirova M	0,03	0,01	0,2	386,7	512,0	125,3	32,4
4	Allanov T	0,06	0,01	0,18	372,2	540,0	167,8	45,1
5	Xolboyev J	0,02	0,01	0,2	314,0	500,0	186,0	59,2
6	Xudoyberdiyeva N	0,15	0,01	0,25	402,7	650,3	247,6	61,5
7	Turopov I	0,03	0,01	0,23	389,0	575,0	186,0	47,8
8	Eshboyev B	0,04	0,01	0,17	375,0	500,0	125,0	33,3
9	Tilovov B	0,03	0,01	0,23	402,3	533,3	131,0	32,6
10	Bozorova N	0,02	0,01	0,2	386,0	455,0	69,0	17,9



Oltinsoy tumani “Bibizaynab” mahallasida yashovchi Dobilov Ch. 0,01 ga yer maydonidan 0,21 t hosil yetishtirish uchun 297,1 ming soʻm xarajat qilgan, Sobirov O. esa 0,01 ga yer maydonidan 325,1 ming soʻm xarajat evaziga 0,19 t kartoshka yetishtirgan (2-jadval). Xarajatlarni hisoblashda “1 ga maydon uchun”).

2-jadval. Oltinsoy tumani “Bibizaynab” mahallasi tomorqa yerlarida kartoshka yetishtirishning iqtisodiy koʻrsatkichlari (2022-yil)

№	Tomorqa egasi	Ekin maydoni, ga	1 birlik ekin maydoniga nisbatan					
			Yer maydoni, ga	Yetishtirilgan mahsulot miqdori, t	Mahsulot yetishtirish xarajatlari, ming soʻm	Daromad, ming soʻm	Foyda, ming soʻm	Rentabellik, %
	1	2	3	4	5	6		7
1	Abdusamatov Q	0,11	0,01	0,2	345,7	530,0	184,3	53,3
2	Eshmanov X	0,12	0,01	0,2	384,4	562,5	178,1	46,3
3	Misirov Oʻ	0,15	0,01	0,22	298,6	432,0	133,4	44,7
4	Qosimov Oʻ	0,35	0,01	0,25	344,5	491,1	146,6	42,5
5	Dobilov Ch	0,16	0,01	0,21	297,1	426,9	129,8	43,7
6	Togʻayev T	0,25	0,01	0,2	335,6	515,0	179,4	53,5
7	Sobirov O	0,16	0,01	0,19	325,1	470,0	144,9	44,6
8	Chorshanbiyev X	0,09	0,01	0,21	298,8	462,5	163,7	54,8
9	Mustayev A	0,22	0,01	0,22	348,3	532,4	184,1	52,9
10	Xoʻshboqov B	0,07	0,01	0,2	377,3	585,0	207,7	55,0

Xarajatlarni hisoblashda “1 ga maydon uchun” urugʻlik sarfi oʻrtacha 2800-3500” kg, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan 1 sentner kartoshka yetishtirish uchun meʼyor boʻyicha Surxondaryo sharoitida N=8,7 kg, P=5,5 kg va K=3,3 kg sarflanishi, turli kasallik va zararkundalarga qarshi kurash kabilar xarajatlari hisobga olindi.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, tomorqa yer egalari yer uchastkasi bonitet bali haqida aniq maʼlumotga ega emasliklari hisobiga bir xil hajmdagi yer maydonidan turli miqdordagi xarajatlar hisobiga turli hajmda mahsulot yetishtirishmoqda. Bu, oʻz navbatida, tomorqa yerlaridan foydalanuvchilarning foydasi kamayishiga olib kelmoqda va tomorqa yerlaridan samarali foydalanishga toʻsqinlik qilmoqda.

Dehqon xoʻjaliklari, tomorqa yer egalari foydalanadigan yer maydonlarining shu davrgacha bonitet bali aniqlanmaganligi hosil yetishtirish xarajatlari va daromadlarini aniqlashtirish va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish prognozlarini asoslash imkoniyatlarining pastligini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dehqon va tomorqa xoʻjaliklari foydalanishidagi yer maydonlarining bonitet balini aniqlash mexanizmini yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiqdir. Bunda sugʻoriladigan yerlarning bonitet balini aniqlashni amalga oshiruvchi bonitirovkalash hududiy xizmati faoliyati tizimli ravishda yoʻlga qoʻyiladi. Bu xizmat davlat-xususiy sherikchiligi asosida va vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsensiyaga koʻra oʻz faoliyatini amalga oshiradi. Dehqon va tomorqa xoʻjaliklari foydalanishidagi yer maydonlarining bonitet balini aniqlash ixtiyoriy va oʻzaro kelishuvga asosan har 3-5 yilda aniqlanadi.

Dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yerlaridan foydalanishda qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada barqaror surʼatlarga yetkazish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu ishni amalga oshirish uchun, bizningcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- dehqon xoʻjaliklari va tomorqa egaligiga tegishli sugʻoriladigan yerlarini toʻla inventarizatsiyadan oʻtkazish va yer unumdorligini bonitirovkalash orqali aniqlashni amalga oshirish;
- dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari agroservisning barcha turlari boʻyicha xizmatlar koʻrsatishni kengaytirish;
- dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini uy sharoitida qayta ishlashga asoslangan mini texnologiyalarni ishlab chiqishni yoʻlga qoʻyish, ishlab



chiqarilayotgan mahsulotlarini sertifikatlash va sotilishini ta'minlash hamda shu asosda qishloqda kasanachilik faoliyatini yanada rivojlantirish;

g) har bir tumanda dehqon va tomorqa xo'jaliklari uyushmalarini tashkil qilish, ular orqali dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatiga ko'mak berishni kuchaytirish.

Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish dolzarbligi va dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari yerdan foydalanishida mablag'lar bilan ta'minlanishi ahvoli qoniqarli emasligi qishloq xo'jaligi takror ishlab chiqarishida asosiy vosita va omil bo'lgan yer unumdorligidan samarasiz foydalanilayotganligi sabablidir. Ko'plab dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari yerdan foydalanishidagi yerlarning ahvoli qoniqarli emas, chunki ushbu yerlar sho'rlanish, begona o't bosishi, cho'llanish va boshqa salbiy faktorlar ta'sirida unumdorligi past sanaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari foydalanishidagi yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini va mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirishga erishishda dehqon xo'jaliklari, tomorqa yerlaridan foydalanuvchilar yer maydonlari ball bonitetini aniqlash mexanizmini yo'lga qo'yishi maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtgacha faqatgina fermer xo'jaliklari yer maydonlarida ball boniteti aniqlanib kelinadi.

Dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari foydalanishidagi yer maydonlarining shu davrgacha bonitet bali aniqlanmaganligi shu yer maydonlaridan joriy hosil yetishtirish xarajatlari va daromadlarini aniqlashtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish prognozlarini ishlab chiqish imkoniyatining pastligini keltirib chiqardi. Shu nuqtayi nazardan, dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari foydalanishidagi yer maydonlarining bonitet balini aniqlash mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Bunda sug'oriladigan yerlarning bonitet balini aniqlashni amalga oshiruvchi hududiy bonitirovkalash xizmati faoliyati tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi lozim deb hisoblaymiz. Dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari foydalanishidagi yer maydonlarining bonitet balini aniqlash ixtiyoriylik va o'zaro kelishuvga asosan muayyan muddatda aniqlanishi lozim. Ushbu ilmiy yangilikni amaliyotga joriy qilinishi quyidagi natijalarni beradi:

dehqon va tomorqa yerlaridan foydalanuvchilarning yerdan foydalanish jarayonida resurslarni tejash, xarajatlar va foydallik darajasini rejalashtirish imkoniyatini beradi hamda bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini keskin oshishi oldini oladi;

dehqon va tomorqa yerlaridan foydalanuvchilarning boshqa korxonalar bilan hamkorligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

dehqon va tomorqa yerlaridan foydalanuvchilarning yer uchastkasidan samarali foydalanishlarini ta'minlaydi va aholining turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari yerdan foydalanishidagi yer unumdorligini oshirishda turli agroservis xizmatlaridan past darajada foydalanishadi. Ushbu muammolarni yechimi sifatida fermer xo'jaliklari yer uchastkasining ijaraga olish huquqi qiymatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2004-yil 13-martdagi 6/17-sonli qarori³ bilan tasdiqlangan "Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qiymatini baholash tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi Nizomga o'xshash dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari yerdan foydalanishidagi yer egalik huquqini garovga qo'yib, uzoq muddatli ipoteka krediti olish mexanizmini amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha Nizom ishlab chiqilishi lozim. Ushbu nizom asosida taqdim etiladigan uzoq muddatli ipoteka kreditlari quyidagi maqsadlarda foydalanilishi kerak:

yer uchastkasining sho'rlanish darajasini pasaytirishga;

yer uchastkasining begona o'tlar bilan qoplanishidan himoyalashga;

tuproq tarkibida gumus miqdorini oshirishga;

yer uchastkasining agroximiyaviy kartogrammasini ishlab chiqishga va boshqa yer unumdorligini oshirishni ko'zda tutuvchi tadbirlarga.

Tijorat banklari kredit xatarini amaldagi huquqiy me'yorlar asosida garovga qo'yilgan yer uchastkasini yer egasining roziligi bilan ma'lum muddatga uchinchi shaxsga foydalanishga berish yo'li bilan kamaytirish imkoniyatiga ega va bu jarayon bank tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Altiyev A.S. Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. Monografiya. ISBN 978-9943-19-435-9, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2018 y., 272 b.
2. Choriyev Q., Xushmatov N. Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini rejalashtirish, –T.: "Sharq", 2002.
3. Xo'jageldiyev Ch.P. (2010). Unumdorlik va samaradorlik – barqarorlik garovi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, (1), 24.

3 <https://lex.uz/acts/-821965>



4. Xo'jageldiyev Ch.P. (2010). Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni iqtisodiy baholash haqida nazariy qarashlar. Jayxun Termiz davlat univversiteti xabarnomasi, (1), 36-40.
5. Xo'jageldiyev Ch.P. (2010). Yer unumdorligini oshirishning kredit mexanizmlari. Bozor, pul va kredit. (4), 47-49.

Интернет манбалари

1. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi 604—I-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil. kadrovik.uz
2. O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni.
3. 2021-yil 1-aprel O'RQ-681-son. lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermar, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 26-aprel, PQ-3680. lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, // №PF-5742, 17.06. 2019-y. lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2010-yil 5-iyun "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarini yer uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida" 21/6-sonli qarori. lex.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

